

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 3

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 796 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-martda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Экологические и альтернативные заполнители для бетона в условиях Узбекистана.....	10
Акрамов Хуснитдин Ахрарович, Тохиров Жалолиддин Очилович, Самадов Хомид Самандарович	
Investitsion marketingni rivojlantirish asosida mintqa investitsiya jozibadorligini oshirish	16
Ahmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda yashil budjetlashtirish, energiya samaradorligi va issiqxona gazlari emissiyasi.....	22
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamanov Alisher	
Development of the Digital Economy as a Trigger of the Economic Growth of the New Uzbekistan.....	28
Luiza Sayfullovna Makhmutkhodjaeva, Umarova Shahnoza Akbarovna	
Oliy o'quv yurtlarida matematik statistikani o'qitishning xususiyatlari.....	34
Shamsiyev Damin Najmiddinovich, Aymatova Farida Xo'razovna	
Turizm tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari	37
Mardonova Dilafruz Kosimovna	
Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minoti: O'zbekistonda mayonez importini notarif tartibga solish va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari.....	41
Muratova Shohista Nimatullayevna, Nomozov Azizbek Xayrulla o'g'li	
Mamalakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qimmatli qog'ozlar bozorining o'rni va roli	46
Akramov Azamat Ramziddinovich	
Mamlakatning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida elektromobil sanoatini rivojlantirishning ahamiyati	53
Iminov Mahmudjon Azimjon o'g'li	
Hududiy eksport salohiyatini oshirishning marketing strategiyasi.....	60
Jiyamuratov Rustam Nuridinovich	
Turistik kompaniyalar moliyaviy barqarorligini baholash usullarini takomillashtirish kompaniya moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim mezonini.....	65
Jo'rayev Behzod Nuraliyevich	
Iste'molchilarni xulq-atvori modellari asosida marketing strategiyalarini shakllantirish.....	70
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish	75
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni.....	80
Otajonova Charosxon Polvonquli qizi	
Innovatsion menejment va raqamli transformatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslari.....	84
Quldoshev Asliddin Tursunovich	
Strategik boshqaruvda xususiy kapital samaradorligini baholash.....	89
Nasriyeva Zebiniso A'zam kizi, Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Mintaqalarni innovatsion rivojlantirish istiqbollari tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishni boshqarish yo'llari	100
Xodjamuratova Gulbaxar Yuldashevna	
Meva-sabzavot eksporti barqarorligini ta'minlashning ekonometrik tahlili	105
Shamsiyeva Feruza Muratxodjayevna	
Зарубежный опыт активизации экономической активности домохозяйств.....	111
Бердиев Гайрат Ибрагимович, Маликова Севинч Телман кизи, Люсиков Артемий Александрович	
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth: A Case Study of Uzbekistan.....	116
Abdulla Ibragimov, Keldiyorov Shakhriyor Ilyos O'g'li	



Mintaqada sanoat ishlab chiqarish rivojlanishining kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati	121
Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li	
Global iqtisodiyot sharoitida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etishdagi muammolar va yechimlar	125
Abduvosidova Gulandom Abdurashid qizi	
Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasida biznes subyektlarini toifalarga ajratish amaliyotining xususiyatlari	131
Akobirova Nodira Najmiddin qizi	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanish yo'llari	135
Axmedova Nafisa Amirddin qizi	
Strategic directions of integration of Uzbekistan into the international hospitality industry	140
Bekmurodova Laylo Tursunmamatovna	
Surxondaryo viloyatida parrandachilikni rivojlantirish ko'rsatkichlarini prognozlash va modelashtirish	144
Bobomuratov Imomqul Islamovich	
Mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati va uning tahlili	149
Talipova Dilfuza Nabiyeвна	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	154
Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li	
Analysis of the Influence of Macroeconomic Indicators on State Budget Tax Revenue	158
Meyliev O. R., Gofurova K.	
Mahalliy budjet xarajatlarini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri	166
Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li	
Influence of Digital Technologies on Economic Growth of the Republic of Uzbekistan	170
Igamberdiyeva Kunduz Ergashevna	
Transmilliy kompaniyalarning tashqi bozorlar uchun marketing strategiyalari va marketing tadqiqotlarini o'tkazish amaliyoti	174
Jo'rayeva Zilola Turobovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari	178
Kamilova Iroda Xusniddinovna	
Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish	183
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Tijorat banklari faoliyatida onlayn tizimlarining tutgan o'rni va ularning rivojlanishi	188
Raxmataliyev Muzaffar Eshdavatovich	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyatining ta'sirini baholashning nazariy asoslari	194
Fayziyeva Dilsuz Bahodirovna	
O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish samaradorligini oshirish	200
Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li	
Andijon viloyatida kambag'allik darajasini qisqarishiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar	214
Musaeva Ziyoda Allayarovna	
O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi eksportida marketing muammolari	218
Musyeva Shoirazimovna, Agzamov Avazxon Talgatovich	
Respublikamizda parranda bosh sonining hozirgi holati va uning istiqbollari	223
Akramova Nargiza Axrorovna	
Menejmentda ishbilarmonlik kommunikatsiyalaridan foydalanishda optimal strategiyalarini qo'llash shart-sharoitlari	227
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi	
Raqamlashtirish sharoitida innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari	231
Nazarova Latofat Toirjon qizi	
O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	235
Nurmuxammedov Matlab Yunusovich	



Davlat aktivlarini samarali boshqarish hamda nazorat qilishni takomillashtirish.....	240
Mirzayev O., Nazarov G'ayrat Olim o'g'li	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	246
O. U. Shomurodov, Z. U. Uroqov, A. T. Ablahatov, A. A. Suyarov, J. S. Urazov	
Methodological Aspects for Branding in Private Schools.....	251
Odilova Sitora Sayfitdin qizi	
Совершенствование процедуры оценки эффективности и результативности расходов государственного сектора.....	256
Олимов Элёр Фазлиддин угли, Искандаров Суннатилло Бахриддин угли	
Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blokcheyn texnologiyalardan foydalanish	261
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Markaziy Osiyoda energetika bozorini rivojlantirishning kelgusi istiqboli va imkoniyatlari.....	267
Saidov Mash'al Samadovich, Umarova Irodaxon Nuraliyevna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sug'urta bozorining innovatsion usullaridan foydalanishning konseptual asoslari	275
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Oliy ta'limda boshqaruv strategiyalari va ularni amalga oshirish mexanizmi.....	279
Saidqulova Firuza Farmonovna	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari	283
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
O'zbekiston Respublikasidagi mavjud suv resurslarining iqtisodiy holati tahlili	288
Shanazarova Gulyora Baxtiyarovna	
Tijorat banklari kredit risklarini kamaytirish yo'llari.....	294
Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi	
The use of Intellectual Systems in the Improvement of the Educational Process Management System in Higher Educational Institutions	303
Umarova Dilfuza Rakhmatilla qizi	
Oliy ta'lim tizimida yangi iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish.....	307
Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich	
Global iqtisodiy sharoitida moliyaviy hisobotlar auditida muhimliklarni baholashni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	311
Xasanova Nasiba Tolliboy qizi	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni tashkil etish istiqbollari.....	314
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Oliy ta'lim muassasalarida gibril bulut xizmat modelini qo'llash mexanizmini ishlab chiqish	319
Zaripov Bahodir Bobomurod o'g'li	
Роль инвестиций в системе железнодорожного транспорта в Республике Узбекистан	325
Акбарова Лайло Упашевна	
Gidrotexnik inshootlar betonlarini samaradorligini tahlil qilish va oshirish natijalari.....	330
Asqarov B. A., Karimov M. U., Xolmirzayev S.T., Obidjonov J. T.	
Maxsus iqtisodiy zonalar hududiga jalb etilgan investitsiyalar to'g'risida	334
Davlayev G'olib Ashurovich	
Yangi xizmat turi xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning metodologiyasi	337
Djurayeva Dilnoza Davron qizi	
Mintaqalar innovatsion salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvlari.....	343
J. A. Ismatullayev, D. X. O'rinov	
Milliy qayta sug'urtalovchilarning xalqaro sug'urta bozoriga kirib borishi va kutilayotgan xavf-xatarlar	348
Jorabayev Jasur Abduraxmanovich	



Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditi natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish tartibi	354
Ibragimov M. M., Ergashev O. F.	
Turistik destinatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirishning xorijiy tajribalari	358
Karimov Anvar Aktam o'g'li	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	362
Qurbonov Muxiddin Abdullayevich	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimini tadqiq etishga uslubiy yondashuvlar.....	367
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Allaberganov Zakir Gayibovich	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlarini	373
Mamatov Mamajan Axmadjonovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari eksport faoliyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	380
Mansurov Saidxo'ja Kamalovich	
Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish muammolari va dolzarb vazifalari	386
Musyeva Shoiraz Azimovna	
Устойчивый и инклюзивный рост: взаимосвязь экономического прогресса с социальным равенством и экологическим управлением	390
Нодирбек Холбаев	
Mintaqalarni investitsion jozibadorligini taraqqiyot strategiyasiga ta'sirini statistik baholash.....	396
Nuriddinov Zufar Akbarovich	
Финансирование каракулеводства: преодоление финансовых вызовов в пустынных регионах Узбекистана	402
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
O'zbekiston investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish.....	408
Oybek Elmuratov	
Intellectual mulkning iqtisodiy mazmuni va tarixiy rivojlanish bosqichlari	411
Maxmudova Nargiza Davlyat qizi	
Implementation and use of Digital Technologies in Logistics Abstract.....	416
Kushakova Mamura, Koshakova Mukhlisa Surat qizi	
Innovatsion iqtisodiyot tushunchasining mazmun mohiyati	421
Abduqaxorov Bekzod O'tkir o'g'li	
Raqamlashtirish iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida.....	426
Mamajonova Durdonahon Mamaruzi qizi	
O'zbekistonda tashqi savdoni notarif usullar orqali tartibga solishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri.....	431
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Инновационные методы переработки горных отходов для экологической устойчивости в Узбекистане	437
Аскарлов Бахтиер Аскарлов, Собирова Мукаддас Хамидуллаева	
Опыт зарубежных стран по стимулированию производства сельскохозяйственной продукции и перспективы внедрения в Узбекистан.....	442
Холиков Сулаймон Уткир угли	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning uslubiy jihatlarini.....	447
Pardayeva Shahnoza Abdinabiyevna	
O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni statistik tahlili.....	452
Sayfullayev Siddik Nosirovich	
Sug'urta tashkilotining innovatsion risklarini baholash.....	457
Sattorov Shoxrux Maxmudjon o'g'li	



Kapital bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari	462
Turdiyeva Uzayda Omirbayevna	
Адаптивный искусственный интеллект в управлении человеческими ресурсами	469
Хайдарова Малика Шокирджановна	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi zamonaviy va istiqbolga mo'ljallangan huquqiy asoslarning yaratilganligi to'g'risida	478
Xayriddinov Shuxrat Botirovich	
Investitsiya loyihalariga ta'sir qiluvchi risklarni sifat jihatdan baholash usullarining o'ziga xos xususiyatlari	482
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni kreditlash tartib va ularni takomillashtirish yo'llari	491
Yunusova Ozoda Anvarjon qizi	
Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda soliq salohiyatini oshirishning nazariy jihatlarini	498
E. N. Raximov	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning zarurligi	504
Avazov Ilxom Ravshanovich	
Inson resurslarini boshqarishning innovatsion usullarini joriy etish vositalarini ishlab chiqish	509
Djuraeva Guzal Shavkatovna	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	513
Erkinxojiev Ismoiljon Ikromjon o'g'li	
Korporativ qimmatli qog'ozlar asosida korxonalarni moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari	517
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
The impact of corporate governance on firm performance and financial stability	524
Muhammadyor Yunusov	
Mintaqalarda kamg'allik darajasini pasaytirish va xorij tajribasidan foydalanish yo'llari	537
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash soliq ma'muriyatchiligini samarali tashkil etish yo'llari	541
Mutalova Dilorom Maxamadjanovna, Kenjaboyeva Nigina	
Iqtisodiy savodxonlik hamda tadbirkorlik qobiliyati o'rtasidagi to'g'ri nisbatdagi bog'liqlik munosabatining fundamental asoslari	544
Tuxtayeva Muyassar Shovkat qizi	
Korxonalarning bankrotlik riskini baholashning xalqaro modellari	550
Umarova Hulkar Umidulloyevna	
O'zbekistonda korxona boshqaruvida kadrlar salohiyatidan foydalanish amaliyotini rivojlantirishning xorij tajribasi	555
Do'stova Aziza Qahramonovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv tizimining xususiyatlari	559
Iroda Majidova	
Ziyorat turizmini rivojlantirishning muhim xususiyatlari	565
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li	
Qandolat mahsulotlari bozorida marketing tadqiqotlarini asosiy yo'nalishlari	569
Tuychiyeva Vasila Faxriddin qizi	
“Зелёная экономика” как фактор повышения экономического роста страны	573
Тураева Адиба Икрамовна	
Oilada sarf-xarajatlar samarasiga erishishning muhimligi	580
Xasanov Rustam Rabimovich	
Aholi farovonlik darajasidagi farqlarni tartiblash yo'nalishlari	583
Xasanov Rustam Rabimovich, Turdiyev Zoxidjon Rustamovich	



Совершенствование оценки стоимости объектов недвижимости в Узбекистане на основе зарубежного опыта.....	588
Хомитов К. З., Халилова Л. Ш.	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ahamiyati.....	594
Choriyeva Nigina Kaxramonovna	
Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish yo'llari	598
Alimbayeva Sevara Alimbayevna	
Yengil sanoatni rivojlanishida Germaniya tajribasi.....	601
F. Jumaniyazova, G'ulomov Ibroxim Rustam o'g'li	
The efficiency of usage of Islamic finance instruments in security market.....	607
Khasanov Umarbek Begmat ugli	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanishning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari.....	613
Mamasoatov Dilshod Ravshanovich	
O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilinishining hozirgi holati va muammolari	621
Nutfulloev Tolib G'olib o'g'li	
Mehnat bozorida raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish	627
Maxammadiyev M. M.	
Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish sharoitida mahsulot tannarxini optimallashtirish asoslari.....	632
Narzullayeva Gulchehra Salimovna	
Elektron pullarni rivojlantirish yo'llari	636
Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Egamberganov Mirzabek Odilbek o'g'li	
Загрязнение окружающей среды в Узбекистане: проблемы, причины и пути решения	644
Ишонкулова Феруза Асатовна, Шукуров Тимур Умидович	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarini transformatsiyalash modeli orqali takomillashtirish	649
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyeвна	
Land Tax Received From Individuals and its Share in the Budget of the Republic of Uzbekistan	656
Hakimov Feruz Khurshid ugli	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlar tahlili.....	659
Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi, Sharapova Mashxura Azadovna	
Qurilish xizmatlari ma'lumotlar tizimini takomillashtirish imkoniyatlari.....	665
Nurfayziyev Zayniddin Boymurodovich, Nurfayziyev Elyor Zayniddinovich	
Ipotekali kreditlashni rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribasi va uni O'zbekistonda tatbiq etish yo'llari	670
Turdiyev Shaxriddin Erxonovich	
Suv resurslaridan foydalanishda xorij tajribalari	675
Berdiyev Anvar Abdivaliyevich	
Auditda yetarli va mos dalillarni to'plash tartibi	681
Meliyev Isroil Ismoilovich	
"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi.....	686
Urunbayev Saparbek Samatovich	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari.....	692
Xolmuradov Raxmatilla Ne'matillaevich	
O'zbekiston mahsulotlarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligi xususiyatlari va onlayn platformalar.....	699
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich	
Factors affecting investment attractiveness in the global investment landscape.....	704
Otaboev Akhmed Makhsudbek o'g'li, Juliana Juliana, Fazliddin Nasriddinov	



Xalqaro migratsiyaning O'zbekiston mehnat bozori va inson kapitaliga ta'siri.....	709
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Анализ и оценка естественного освещения помещений образовательных учреждений.....	714
Пирмухамедова Шахноза	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан...	719
Рузиева Нилуфар Тулкин кизи	
Методические подходы к формированию механизмов стратегического управления развитием химической отрасли.....	725
Бибутова Шахло Саъдуллаевна	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishning afzalliklari va muammolari	730
Axmedova Dilbar Buronovna	
Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishda sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning mohiyati.....	734
Ishmanova Diana Nurmatdovna	
Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlanti-rishning nazariy asoslari	737
Muxtorova Madina Azamat qizi	
Ipoteka kreditlari sohasidagi islohotlar va kelajakdagi istiqbollar.....	741
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
Sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari	746
Yodgorova Xalima To'liqinovna	
Budjet ijrosini samarali ta'minlashda davlat xaridlarining ahamiyati.....	752
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Fayzullayeva Zilola Ravshanovna	
Aholi sog'ligi – milliy boylikning tarkibi va jamiyat taraqqiyotining muhim shartidir.....	763
Djumabayeva Shaira Xalillayevna	
Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari: hisob siyosati.....	769
Rizayev Nurbek Kodirovich, Mamatova Charos Shavkiddinovna	
Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion muhitning o'rne	778
Valiyeva Sayyora Xushbaqovna	
Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ ijtimoiy mas'uliyat ("Rossiya temir yo'llari" OAJ misolida).....	784
Xidirova Marg'uba Rustamovna, Saidqulov Avazbek Botirqul o'g'li	
Raqamli transformatsiyaning O'zbekistonning investitsion jozibadorligiga ta'siri.....	790
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Markabayeva Jansaya Aybek qizi	



MILLIY QAYTA SUG'URTALOVCHILARNING XALQARO SUG'URTA BOZORIGA KIRIB BORISHI VA KUTILAYOTGAN XAVF- XATARLAR

Jorabayev Jasur Abduraxmanovich

“Kafolat sug'urta kompaniyasi” AJ Bosh direktor o'rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada qayta sug'urta faoliyati va uning O'zbekiston sug'urta bozorida roli ko'rsatib berilgan. Shuningdek, milliy qayta sug'urta bozori tahlil qilinib, uni rivojlantirish bo'yicha xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: qayta sug'urta, to'lov qobiliyati, zaxiralar.

Abstract: This article describes reinsurance activity and its role in the insurance market of Uzbekistan. Also, the national reinsurance market is analyzed and conclusions, suggestions and recommendations are given for its development.

Key words: reinsurance, solvency, reserve.

Аннотация: В данной статье описывается перестраховочная деятельность и ее роль на страховом рынке Узбекистана. Также проанализирован национальный перестраховочный рынок и даны выводы, предложения и рекомендации по его развитию.

Ключевые слова: перестрахование, платежеспособность, резервы.

KIRISH

Sug'urta iqtisodiyotning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Iqtisodiy kategoriya sifatida sug'urta – bu iqtisodiy munosabatlar tizimi bo'lib, maqsadli mablag'larni shakllantirish va ulardan turli xil xavf-xatarlar ostida yetkazilgan zararni qoplash uchun foydalanish, shuningdek, ularning hayotidagi ayrim voqea-hodisalar sodir bo'lgan taqdirda fuqarolarga yordam ko'rsatish shakllari va usullari to'plamidir.

Dunyo davlatlarida ro'y berayotgan tabiiy va texnogen tusdagi turli hodisalar natijasida yuzaga kelgan zararlarning ma'lum bir qismi sug'urta kompaniyalari tomonidan qoplab berilmoqda, bu esa davlat budjetiga sezilarli darajada moliyaviy ko'mak bo'lmoqda.

Ko'plab mamlakatlarda vayron qiluvchi bo'ronlar va o'rmon yong'inlaridan tortib, halokatli suv toshqini va tornadolargacha ro'y berayotgani, bunday tabiiy ofatlarning tez-tez takrorlanishi natijasida zararlilik darajasi ortib bormoqda. AQSHning Milliy Atrof-muhit ma'lumotlari markazi axborotiga ko'ra, so'nggi o'n yil ichida 152 ta tabiiy ofatlar sodir bo'lib, har bir hodisadan kamida 1 milliard dollardan ziyod zarar ko'rilgan. Bu so'nggi o'n yil ichida milliard dollarlik tabiiy ofatlarning umumiy qiymatini 1,1 trillion dollardan oshadi¹. Bunday hodisalarni tez-tez bo'lishiga dunyoda bo'layotgan iqlim o'zgarishlari sabab qilib ko'rsatilmoqda.

Ohirgi yillarda O'zbekistonda birgina Orol dengizining qurib borishi, tuz zarralarini havo massasiga qo'shilishi iqlim o'zgarishiga katta ta'sir qilmoqda. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va qo'shni hududdagi aholiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hukumat darajasida Orol dengizini tiklash bo'yicha keng ko'lamda ishlari olib borilmoqda.

Yuqoridagi iqlim o'zgarishlar natijasida yuzaga kelishi mumkin ofatlarni oldini olish maqsadida, Hukumat tomonidan ham keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Joriy yilning 1 mart kuni imzolangan “Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 108-son qarorida “Yuridik shaxslarning ko'chmas mulkini tabiiy va texnogen ofatlardan majburiy sug'urta qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish” bo'yicha takliflarni kiritish masalasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga yuklatildi.

Qarordan ham ko'rish mumkinki, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy va texnogen hodisalarni oldini olish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. 1966-yildagi jiddiy zilzilani boshidan o'tkazgan mamlakat sifatida, ushbu Prezident qarori to'g'ri yo'ldan ketilayotganidan bir dalolatdir.

1 <https://www.bankrate.com/insurance/homeowners-insurance/natural-disaster-costs>.



Yirik tabiiy va texnogen sug'urta hodisalar, ko'pgina sug'urta kompaniyalarini bankrotlik yoqasiga olib kelishi mumkin. Kompaniyada to'g'ri qayta sug'urta yo'lga ko'ygan sug'urta kompaniyalarida bunday talofatlardan yirik zararlarsiz chiqib ketish imkonini beradi.

Qayta sug'urta albatta, sug'urta faoliyati rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan. Lekin har bir ishda qayta sug'urta mavjud bo'lib kelgan. Hayotiy jarayonda va ishda ko'pgina holatlarda biron bir ish amalga oshishida to'liq ishonch komil bo'lmasa, qo'shimcha chora-tadbirlar qilib qo'yiladi. Misol uchun, uy egasi uyni kalit bilan qulufaydi. Ammo qo'shimcha chora sifatida xavfsizlik signalizatsiyasini o'rnatadi. Bu himoyani vositasini qo'shimcha himoya vositasi bilan himoyalamoqda. Ushbu jarayoni qayta sug'urtaga o'xshatish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug'urta iqtisodiyotning ajralmas bo'g'ini hisoblansa, qayta sug'urta sug'urtaning ajralmas bo'g'inidir. Qaysi mamlakatda sug'urta rivojlangan bo'lsa, o'sha mamlakatda qayta sug'urta sohasi ham rivojlanganiga guvoh bo'lamiz. Bunga AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy va boshqa rivojlangan davlatlar misol bo'la oladi.

Rivojlangan mamlakatlar qayta sug'urta mutaxassislarini o'z tajribalaridan kelib chiqqan holda, o'z amaliy tajribalarini kitoblar orqali bo'lishishadi. Jumladan, R.Kiln va S.Kilnlarning "Qayta sug'urtada anderrayting", K.Pfayfferning "Qayta sug'urtaga kirish" va R.Gastel, B.Smedemark, R.Karter kabi kuchli olimlar o'z adabiyotlarida qayta sug'urta bo'yicha o'rgangan tajribalari asosida o'z qarashlarini bayon etishganiga guvoh bo'lamiz.

Qayta sug'urta rivojlanishiga olimlar N.N.Nikulina, S.V.Berezina, A.Artamanov, Yu.M.Juravlev, M.G.Kaminkina, Ye.Ye.Solseva, A.A.Kudryavsev, Ye.V.Spiridonov, G.V.Chernova va boshqa bir qator olimlar o'z adabiyot va qo'llanmalarida tahliliy va nazariy tajribalarini o'rtoqlashgan holda qayta sug'urta yo'nalishi rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Mamlakatimizda mahalliy olimlarimiz R.S. Azimov, T.M. Boymurodov, N.X. Jumayev, Sh.B. Imomov, M.A. Mirsodiqov, S.A. Umarov, S.S. Nasretidinov, A.G.Sharobiddinov, M.M. Kamilov, X.M. Shennayev kabi iqtisodchi olimlar umumiy sug'urta va qayta sug'urta faoliyati bo'yicha o'z ilmiy qarashlarini bayon etish orqali sug'urta bozori rivojlanishida katta turtki bo'lmoqda.

Ammo, ushbu qo'llanma va adabiyotlarda qayta sug'urta faoliyatini rivojlanishi uchun qonuniy asoslar yaratilmagan. Qayta sug'urta sohasi ayrim tahlillar asosida yuritilgan. Jadal rivojlanishi uchun nimalar qilinishi, qanday to'siqlar mavjudligi haqida keng fikr yuritilmagan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug'urta faoliyatida qayta sug'urtaning o'rni juda kattadir. Zamonaviy iqtisodiyotda moliya bozorining istiqbolli segmentlaridan biri qayta sug'urta hisoblendi. Har bir davlatning sug'urta bozorida qayta sug'urta yo'nalishiga murojaat qilmagan davlat bo'lmasa kerak. Sug'urta bozori rivojlanayotgan davlatdan boshlab, sug'urta bozorida rivojlangan davlatlarga qadar barcha davlatlarda qayta sug'urta yo'nalishidan keng foydalaniladi.

Rivojlanayotgan davlatlarda biron-bir yangi sug'urta turini joriy qilganda, ushbu sug'urta turi qanchalik darajada zararliligini bilmagan taqdirda, qayta sug'urta orqali sug'urta kompaniyasi to'lov qobiliyatini saqlaydi. Rivojlangan davlatlarda kuchli tajribali anderrayterlar hisobiga sug'urtaning ko'pgina "Qaymoq" qismi qayta sug'urtalovchilarga nasib qiladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urta yo'nalishi juda katta tezlik bilan rivojlanayotgan yo'nalish hisoblanadi. Buni, O'zbekinvest va Kafolat sug'urta kompaniyalarining qayta sug'urta yo'nalishida erishayotgan natijalar dalolat bo'la oladi. Quyidagi 1-jadvalda qayta sug'urta bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar o'z tasdig'ini topgan. 2023-yilda qayta sug'urta faoliyati bilan 20 ta sug'urta kompaniyasi shug'ullangan bo'lib, butun sug'urta bozorida qayta sug'urta ko'rsatkichlari o'sganini ko'rsatmoqda.

1-jadval: Qayta sug'urta ko'rsatkichlari, mln. so'mda²

№	Sug'urta kompaniyalari nomi	Qayta sug'urta bo'yicha qabul qilingan mukofotlar		
		31.12.2022	31.12.2023	O'zgarish, %
Umumiy		1 238 062	2 104 505	+70,0%
1	“O‘ZBEKINVEST” EISK AJ	644 903	693 487	+7,5%
2	“KAFOLAT SUG‘URTA KOMPANIYASI” AJ	223 734	541 503	+142,0%
3	“O‘ZAGROSUG‘URTA” AJ	146 065	232 653	+59,3%
4	“APEX INSURANCE” AJ	51 114	160 095	+213,2%

² <https://imda.uz/> ba <https://napp.uz/> saytlarida Sug'urta sohasida maxsus vakolatli davlat organining turli yillarda sohaga oid chop etgan statistik ma'lumotlari.



5	"TEMIRYO'L SUG'URTA" AJ	16 755	112 532	+571,6%
6	"ALFA INVEST SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	59 001	103 661	+75,7%
7	"GROSS SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	20 732	83 914	+304,7%
8	"KAPITAL SUG'URTA" AJ	17 928	61 017	+240,3%
9	"INGO-UZBEKISTON" AJ	11 808	49 611	+320,1%
10	"EUROASIA INSURANCE" AJ QK	11 475	24 243	+111,3%
11	"SQB INSURANCE SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	13 840	10 395	-24,9%
12	"IMPEX-INSURANCE" AJ	46	7 965	>+1000%
13	"IMKON SUG'URTA" AJ	7 113	7 625	+7,2%
14	"MOAIC INSURANCE COMPANY" AJ QK	2 236	6 712	+200,2%
15	"ASIA INSURANCE SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	1 175	3 097	+163,6%
16	"XALQ SUG'URTA" AJ	1 653	1 984	+20,0%
17	** "SHARQ-SUG'URTA" AJ	8 188	1 785	-78,2%
18	"INFINITY INSURANCE" AJ	19	1 464	>+1000%
19	"INSON" AJ	0	531	0%
20	"OMAD SUG'URTA" AJ	277	231	-16,8%

Quyidagi jadvalda esa, yetakchi kompaniyalarda qayta sug'urta yo'nalishiga juda katta e'tibor berilayotgani ko'rish mumkin. Buni qayta sug'urtaning umumiy sug'urta tushimidagi ulushi yaqqol misol bo'la oladi. O'zbekinvest, Kafolat, O'zagrosug'urta va INGO-O'zbekiston sug'urta kompaniyalarida qayta sug'urta juda katta o'ringa ega ekanligi, ushbu kompaniyalarda qanchalik qayta sug'urta rivojlanganligini va e'tibor berilayotganligini qayta sug'urta mukofoti ulush miqdori, umumiy tushumdan 50%dan yuqoriligi dalolatdir.


2-jadval: 2023-yil sug'urta va qayta sug'urta mukofotlarining umumiy tushumdagi ulushi, mln.so'mda³

№	Sug'urta kompaniyalari nomi	Sug'urta mukofoti		Qayta sug'urta mukofoti		Jami
		4 444 879	Ulushi	2 104 505	Ulushi	7 737 236
1	"APEX INSURANCE" AJ	1 850 838	92,0%	160 095	8,0%	2 010 933
2	"O'ZBEKINVEST" EISK AJ	540 373	43,8%	693 487	56,2%	1 233 860
3	"KAFOLAT SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	162 881	23,1%	541 503	76,9%	704 384
4	"GROSS SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	366 237	81,4%	83 914	18,6%	450 151
5	"KAPITAL SUG'URTA" AJ	239 205	79,7%	61 017	20,3%	300 222
6	"INSON" AJ	170 181	99,7%	531	0,3%	170 713
7	"TEMIRYO'L SUG'URTA" AJ	142 956	56,0%	112 532	44,0%	255 488
8	"O'ZAGROSUG'URTA" AJ	160 391	40,8%	232 653	59,2%	393 044
9	IMPEX-INSURANCE" AJ	131 776	94,3%	7 965	5,7%	139 741
10	"ALFA INVEST SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	131 833	56,0%	103 661	44,0%	235 494
11	"SQB INSURANCE SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	125 151	92,3%	10 395	7,7%	135 546
12	"EUROASIA INSURANCE" AJ QK	64 687	72,7%	24 243	27,3%	88 930
13	"IMKON SUG'URTA" AJ	62 598	89,1%	7 625	10,9%	70 223
14	"ASIA INSURANCE SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	72 377	95,9%	3 097	4,1%	75 474
15	"XALQ SUG'URTA" AJ	38 989	95,2%	1 984	4,8%	40 973
16	"INGO-UZBEKISTON" AJ	35 815	41,9%	49 611	58,1%	85 426
17	"INFINITY INSURANCE" AJ	32 907	95,7%	1 464	4,3%	34 371
18	"OMAD SUG'URTA" AJ	29 524	99,2%	231	0,8%	29 755
19	"MOAIC INSURANCE COMPANY" AJ QK	73 101	91,6%	6 712	8,4%	79 813
20	"SHARQ-SUG'URTA" AJ	13 060	88,0%	1 785	12,0%	14 845

3 <https://imda.uz/> ba <https://napp.uz/> saytlarida Sug'urta sohasida maxsus vakolatli davlat organining turli yillarda sohaga oid chop etgan statistik ma'lumotlari.



Quyidagi 1-rasmda O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlanayotganligi, qayta sug'urta ulushi ham yildan yilga o'sishga erishayotganligini ko'rish mumkin. 2023-yilda 2022-yilga nisbatan jami sug'urta mukofoti o'sish 66%ni tashkil etgan bo'lsa, qayta sug'urta yo'nalishida o'sish 70%ga teng bo'lgan.



1-rasm: O'zbekiston sug'urta bozoridagi sug'urta va qayta sug'urta mukofotidagi ulushlari, mln. so'mda⁴

Qayta sug'urta rivojlanishiga nima sabab bo'lmoqda? Nega bunchalik tezda rivojlanmoqda? Qaysi omillar sabab bo'lmoqda? Keling, bir tahlil qilib ko'ramiz.

Oxirgi besh yillikda milliy sug'urta kompaniyalarining jahon sug'urta bozori bilan integratsiyalashuvi juda jadallik bilan rivojlandi. Bunga sug'urta kompaniyalarining xalqaro reytingni olishga e'tiborni kuchaytirgani sabab bo'lmoqda. Bundan 10-yil avval O'zbekiston sug'urta bozorida faqatgina O'zbekinvest sug'urta kompaniyasida xalqaro reyting mavjud edi. Shundan so'ng, 2016-yilda Kafolat sug'urta kompaniyasi xalqaro reyting olishga erishdi. O'sha davrlardan boshlab, O'zbekiston sug'urta bozoriga chet el risklari kirib kelishni boshladi.

O'zbekiston sug'urta bozorida xalqaro reytingga ega kompaniyalar soni yildan yilga ko'paymoqda. Hozirda Apex, O'zbekinvest, Kafolat sug'urta kompaniyasi, Gross, Inson, Temiryo'l-sug'urta, O'zagrosug'urta, Impex Insurance, SQB Insurance va Asia Insurance sug'urta kompaniyalari turli xalqaro reyting agentliklaridan reyting olishga erishishgan.

Sug'urta kompaniyalar xalqaro reyting olish bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy davlatlarga xizmat saforlarini keskin oshirdi. Dunyoning qaysi burchagida xalqaro konferensiya va tadbirlar bo'lmasin O'zbekiston sug'urta kompaniyasi vakili albatta, ishtirok etib kelmoqda.

O'zbekistondagi umumiy sug'urta bozoridagi raqobat tufayli, to'g'ridan to'g'ri sotuvdagi sug'urta tariflari narxlarini, haqiqiy andarrayting natijasida yuzaga keladigan tarif narxiga umuman to'g'ri kelmayapti. Kuchli demping siyosati (Soft market) tufayli, O'zbekiston sug'urta bozorida sog'lom raqobat cheklanmoqda.

Hozirda, tashqi sug'urta bozoridan kelayotgan risklar qiziqarli bo'lib ko'rinmoqda. Xorijiy risklarda sug'urta xodisasi ro'y berganda, kompaniyalarni qiyin vaziyatga tushirib yuborishi mumkin. Sababi, O'zbekistonga nisbatan boshqa davlatlarda sug'urta hodisasi tez-tez bo'lib turishi bilan birga, sug'urta hodisasi bo'lganda ham juda katta miqdorda bo'lishi mumkin.

Hozirda O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urta yo'nalishi eng tez rivojlanayotgan yo'nalish bo'lsada, qayta sug'urta bo'yicha mutaxassislar tanqisligi mavjud. Kompaniya muhim bo'g'inida mutaxassislar yetishmovchiligi, ushbu kompaniya aksiyadorlariga xavfli signaldir. Chunki, o'z vaqtida va sifatli qayta sug'urta joylashtirilmasligi, sug'urta hodisasi natijasida moliyaviy zararlarni undirish yoki qoplash muammolarini yuzaga keltiradi.

Yangi va to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan sug'urta kompaniyalari kuchli mutaxassislarni jalb qilishga harakat qiladi. Sug'urta bozoridagi kadrlar yetishmovchiligi esa, kuchli mutaxassislarga talab yuqori bo'lishi, kadrlar qo'nimsizligiga ham olib keladi. Shu sababli, sug'urta, jumladan qayta sug'urta mutaxassislarni tayyorlaydigan, qayta tayyorlaydigan yo'nalishlarni ko'paytirish, ta'lim va amaliyot integratsiyasini yo'lga qo'yish lozim.

Yurtimizda ko'pgina xorijiy oliygohlarning filiallari ochilmoqda. Afsuski, ushbu oliygohlarning xech biri sug'urta yo'nalishida kadrlarni yetkazib bermayapti. Sug'urtani jadal rivojlanishida, chet el tajribasi samarali

⁴ <https://imda.uz/> ba <https://napp.uz/> saytlarida Sug'urta sohasida maxsus vakolatli davlat organining turli yillarda sohaga oid chop etgan statistik ma'lumotlari.



natija beradi. Chunki hozirgi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida yuza kelayotgan muammolarni, ushbu rivojlangan mamlakatlar qachonlardir bosib o'tgani, tajriba borligi sababli, bu jarayondagi xatolarni takrorlamasdan o'tish imkonini beradi.

Hozirgi kunda sug'urta kompaniyasini kelajagini o'ylayotgan kompaniya aksiyadorlari o'z xodimlarini chet el davlatlariga malaka oshirishga katta e'tibor berishmoqda. Bu o'z navbatida, sug'urta bozorida xodimlari malakasi oshishi bilan birga, xorijiy hamkorlaridan kelayotgan qayta sug'urta takliflarni to'g'ri baholashga olib kelmoqda. Buning natijasida, sifatli xorijiy risklar kirib kelmoqda.

Rivojlangan davlatlarda kuchli anderrayterlarga ega kompaniyalarda ham umumiy zararlilik darajasi 90%-100% atrofini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich ular uchun yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi. Bu quyidagi jadvalda ham ko'rish mumkin.

3-jadval: 2022-yil Jahonning eng yaxshi qayta sug'urtalovchilarining qayta sug'urta bo'yicha ko'rsatkichlari, mln. AQSH dollarida⁵

№	Qayta sug'urtalovchilar	Brutto qayta sug'urta mukofoti	Netto qayta sug'urta mukofoti	Zararlilik nisbati	Xarajatlar nisbati	Birlashtirilgan nisbatlar
1	Munich Reinsurance Company	\$36,729	\$35,290	66.5%	29.7%	96.2%
2	Swiss Re Ltd.	\$23,763	\$22,826	74.2%	28.2%	102.4%
3	Hannover Rück S.E. 4	\$25,884	\$21,637	71.9%	27.9%	99.8%
4	Berkshire Hathaway Inc. 5	\$16,962	\$16,962	66.1%	20.3%	86.4%
5	SCOR S.E.	\$10,695	\$8,782	84.1%	29.1%	113.2%
6	Lloyd's 6, 7	\$18,533	\$14,162	63.6%	30.8%	94.4%
7	China Reinsurance (Group) Corporation	\$7,688	\$7,207	68.2%	28.1%	96.4%
8	Everest Re Group Ltd.	\$9,316	\$8,983	69.2%	27.1%	96.4%
9	RenaissanceRe Holdings Ltd.	\$9,214	\$7,196	68.5%	29.1%	97.6%
10	PartnerRe Ltd.	\$7,015	\$5,899	59%	27.6%	86.7%

Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkinki, dunyoda yetakchi Munich Re va Swiss Re qayta sug'urta kompaniyalarida ham jami zararlilik va xarajatlari yig'indisi 96,2% va 102,4% tashkil qilmoqda.

Barchada savol tug'ilishi mumkin, unda nimasi bilan qayta sug'urta o'ziga jalb qiladi? Jadvalda zararlik darajasi ya'ni qayta sug'urta qoplamasining qayta sug'urta mukofotiga nisbati 60%dan 85%gacha oraliqdaligini ko'rish mumkin, o'rtacha zararlilik darajasi 70%-75%ni tashkil etadi. Qolgan 25%-30% xarajatlar esa, anderrayterlarga to'lanadigan ish haqi, brokerlarning komissiya, reklama va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi. Kompaniya qayta sug'urta to'loviga qadar, ushbu mablag'larni investitsiyaga qo'yish orqali foyda ko'radi.

Munich Re misolida ko'radigan bo'lsak, tashkilot 2022-yil yakunlari bo'yicha netto qayta sug'urta mukofoti 35,3 mlrd AQSH dollari to'plashga erishgan. Jami xarajatlilik darajasi 96% tashkil etadi. Qolgan 4% (1,4 mlrd AQSH dollar) bu sof foydadir. Ushbu foydaga Investitsiya hisobidan keladigan daromadni qo'shsak, bu summa kamida 2 barobar oshadi. 2,8 mlrd AQSH dollari, bu minimal hisoblangan kelishi mumkin bo'lgan daromad natijasida yuzaga kelgan foydadir.

Qayta sug'urtada qanchalik anderrayting siyosati to'g'ri olib borilishi, foydaning salmog'i shunchalik katta bo'lishiga sabab bo'ladi.

Har bir kompaniya moliyaviy holatidan kelib chiqib, hududlar kesimida, sug'urta mahsulotlari kesimida ishtirok etish limitini belgilamasa, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sug'urta hodisasi natijasida kompaniya moliyaviy holatini qiyin axvolga tushib qolishi extimoli juda kattadir.

O'zbekiston sug'urta bozorida milliy qayta sug'urtalovchilarning chet el risklariga qiziqishi juda yuqoridir. Sababi, u yerda tarif stavkasi asosan o'rtacha 2 yoki 3%, xattoki 70-80% ega stavkalarni ko'rish mumkin. Bu tarif stavkalari albatta, hozirgi sharoitda O'zbekiston sug'urta kompaniyalari uchun juda yuqori bo'lgan stavkalardir. Ammo, xorijda stavkalari yuqori bo'lishi bilan birga sug'urta hodisalari juda tez-tez ro'y beradi. Shuningdek, sug'urta madaniyati rivojlanganligi sababli, sug'urta qildiruvchilar sug'urtadan maksimal tarzda foydalanishadi.

O'zbekiston sug'urta kompaniyalari uchun xorijdan risklarni olishda o'ziga yarasha qiyinchiliklari bor. Agarda barcha belgilangan me'yoriy talablariga javob bergan taqdirda ham, biron-bir riskda qatnashish ulushi katta bo'lmasa, riskni berayotgan sug'urta brokeriga mazkur sug'urta kompaniyasi qiziq emas. Tan olish lozimki,

⁵ <https://www.reinsurancene.ws/top-50-reinsurance-groups/>



O'zbekinvest va Apex sug'urta kompaniyalari o'zida riskni katta miqdorda ushlab qolishi mumkin bo'lgan tashkilotlardir. Bular qatoriga Kafolat sug'urta kompaniyasi ham qo'shilmoqda. Ushbu kompaniyalarda ustav kapital va aktivlari kattaligi bilan maqtana olishadi. Moliyaviy tomondan ham raqobatbardosh kompaniyalar hisoblanadi.

Milliy qayta sug'urtalovchilar chet eldan katta miqdordagi risklarni qayta sug'urtaga qabul qilishda, o'z barqarorligini ta'minlash uchun mazkur qabul qilinayotgan riskning ma'lum qismini retrotsessiyaga berish orqali qayta sug'urtaga beradi. Bu chet eldan qabul qilingan risklar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yirik yo'qotishlardan kompaniyani himoya qiladi.

Afsuski, amaldagi "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi Nizomda ajratilgan aktivlarga bo'lgan talablar belgilangan, bu kompaniyalarning retrotsessiya orqali o'z himoyasini ta'minlashda to'siq bo'lmoqda. Bunga sabab sug'urta kompaniyasi risk qabul qilishda sug'urta zaxirasini shakllantiradi va retrotsessiyaga berilganda u tomonidan shakllantirilgan sug'urta zaxiralari kamaymaydi. Bu esa ikki tomonlama zaxira shakllantirilishiga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urta faoliyatining qonuniy asoslari, xalqaro sug'urta (qayta sug'urta) bozori bilan integratsiya jarayonlari, mavjud amaliyot tahlilidan kelib chiqib quyidagi xulosa va takliflarni bildiramiz:

Birinchidan, Sug'urtaga doir xorijiy (Chartered Insurance Institute, Marmara University, Institute of Risk and Insurance kabi) oliygohlarning filialini ochish choralari ko'rish lozim.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi Nizomiga o'zgartirishlar kiritish lozim, sug'urta kompaniyalari uchun ajratilgan aktivlarga qo'yilgan talablarni qayta ko'rib chiqish lozim.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 12-mayda 1806-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida"gi nizomidagi xorijiy qayta sug'urtalovchiga qayta sug'urta berishdagi belgilangan reyting talablari biroz yumshatish va yangilash lozim. Standard & Poor's Corporation reytingi bo'yicha minimal talab BB+ belgilangan bo'lsa, Fitch Ratings bo'yicha esa BB- belgilangan. Vaholanki, ikkala reyting agentligining reyting berish talabi bir xil hisoblanadi. Shu sababli, ikkala reyting agentligi bo'yicha BB- belgilash lozim. Shuningdek, Rossiyaning Ekseprt-RA reyting agentligi ham o'z mijozlariga boshqa reyting shkalasi asosida reyting berib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi O'RQ-730-son "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. Moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi Nizom.
4. Moliya vazirining 2008-yil 22-apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida"gi Nizom.
5. Reinsurance M97, Chartered Insurance Institute, 2023-24.
6. <https://imda.uz/> va <https://napp.uz/> saytlarida Sug'urta sohasida maxsus vakolatli davlat organining turli yillarda sohaga oid chop etgan statistik ma'lumotlari.
7. Top 50 Global Reinsurance Groups. <https://www.reinsurancene.ws>.
8. Shennayev X.M. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari. Monografiya. – T.: "Iqtisod-moliya", 2021. – 336b.
9. Кудрявцев А.А., Спиридонов Е.В. Чернова Г.В. Прогнозирование потребности в перестраховочной защите – СПб.: Институт страхования, 2000. – 31 с.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.